

**Sud – huquq tizimidagi islohotlar inson manfaatlarini uchun**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

*Yurisprudensiya 4-108-guruh talabasi*

***O'rmanova Muxlisa Dilshodjon qizi***

*Telefon: +998(97) 021-04-28*

[muxlisaormanova13@gmail.com](mailto:muxlisaormanova13@gmail.com)

***Anontatsiya:*** *bu maqolada sud – huquq tizimidagi so'nggi yillardagi o'zgarishlar, islohotlar va yutuqlar haqida, fuqarolarning huquq va erkinlarining kafolatlari davlat organlari tomonidan himoya qilinishi va so'nggi yillarda inson manfaatlarini ko'zlab chiqarilgan qaror, qonun va farmonlar haqida ma'lumotlar keltirilgan*

***Kalit so'zlar:*** *sud, huquq, qonun, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Harakatlar strategiyasi, farmon, modernizatsiya, qonuniylik, Oliy sud, iqtisodiy sudlar, ma'muriy sud va tergov faoliyati.*

Rivojlanib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi yildan – yilga yangi o'zgarishlar va islohotlar yurtiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bu islohotlar yurtimizdagi hech bir sohani chetlab o'tgani yo'q. Ha, albatta bu islohotlar bo'layotgan sohalardan biri bu sud – huquq tizimidir. Chunki har bir inson qonun ustuvor bo'lgan vatanda yashashni uning huquq va erkinlari davlat tomonidan kafolatlangan tarzda himoya qilishini, huquqni muhofaza qiluvchi organlar balki hamma tashkilotlar insonlar uchun xizmat qiladigan davlatda umr guzaronlik qilgisi keladi. Menimcha, shunday yurtga rivojlanish ham islohotlar ham yarashadi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017 – 2021 yillarda yurtimizda Harakatlar strategiyasi esa yuqori keltirilgan islohotlarning bosh pillapoyasidir. E'tibor berib qaraydigan o'lsak, yurtboshimiz tomonidan chiqarilgan har bir qonun yoki farmonda albatta qonun

ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish uchun bir band keltirilgani kishini hursand qiladi. Uzoqqa ketmaylik yuqori keltirilgan Harakatlar strategiyasi ikkinchi ustuvor yo'nalishi ham sud-huquq tizimini isloh qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash uchun bag'ishlangan. Chunki davlat va jamiyatni modernizatsiya qilishda, eng avvalo sudning mustaqilligini ta'minlash va fuqarolarning huquq va erkinlarini maksimal tarzda davlat tomonidan kafolatli himoya qilish, qonuniylikni ta'minlash buning uchun barcha sohada korrupsiyaga qarshi kurash tizimini isloh qilish va rivojlantirish kabi vazifalarni bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, har bir inson mustaqil va xolis sudni talab qiladi. Chunki insonlar bu sud orqali buzilgan huquqlarini tiklashga, qaytarishga va himoya qilishga intiladi. Shuning uchun bu tizim huddi zilol suvdek toza va pok bo'lishi kerak. Insonlarning xolis va mustaqil sudni talab qilishi huquqi ham Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 10 – moddasida belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>. Bu bilan faqat sud hokimiyatigina har bir haq – huquqi yetarli darajada himoya qilinmagan insonga yordam berishi mumkinligi aytilmoqda. 2020 – yil 29 – dekabrda Prezidentning Oliy Majlisga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida ham so'nggi 4 yil davomida sud – huquq sohasini isloh etish borasida erishilgan yutuqlar aytildi. Bu yo'nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, sudlar mustaqilligini ta'minlash maqsadida, Sudyalar oliy kengashi tashkil qilindi. Yana esa Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Hududlardagi xo'jalik sudlar iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi va 71 ta tumanlararo, tuman(shahar) iqtisodiy sudiga ishlarni birinchi instansiya ko'rib chiqish vakolati berildi<sup>2</sup>.

Sud faoliyatida yana islohotlardan biri ilk marotaba sudyalarning faoliyat yuritish tizimida besh yillik, o'n yillik va muddatsiz davri belgilandi. Sudlarning moddiy – texnik masalalari to'g'risidagi vakolatlari adliya organidan olinib, Oliy sudga o'tkazildi. Bu ham sudlar faoliyatida mustaqillik prinsipiga yana bir dadil

---

<sup>1</sup> Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiya – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 – yil 10 dekabrda qabul qilingan(30 ta moddadan iborat).

<sup>2</sup> [www.president.uz](http://www.president.uz) – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasidan 2020 yil 29 dekabr

qadamdir. Sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflik tamoyillari naznida 10 mingdan ortiq jinoyat ishi sayyor sud muhokamasida ko‘rib chiqildi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash va dastlabki tergovning eng yuqori muddatlari kamaytirildi.

Yana bir sud – huquq tizimidagi o‘zgarishlardan biri bu ma’muriy sudlarning tashkil topganidir. Bu endi fuqarolarga davlat organlari va mansabdor shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti – harakatlari ustidan shikoyat berish huquqini beradi. Ha, bu ham juda katta yutuq. Chunki endi fuqarolar istalgan davlat organi yoki mansabdor shaxsi ustidan ma’muriy sudlarga shikoyat bera oladi va o‘zlarining buzilgan huquqlarini qonun doirasida himoya qiladi. Bu tizim ham prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbusdir. Bu haqida PF – 4850 – sonli va PF – 4966 sonli Farmonlarda, shuningdek O‘RQ – 428 son Qonunlarda aytib o‘tilgandir<sup>3</sup>. 2019 va 2020 yillar mobaynida ma’muriy sudlar tomonidan 31 321 ta ariza ko‘rilgani esa bu sud tizimi biz uchun zarur bo‘lganini bildiradi.

Bu kabi yutuqlar albatta ko‘p. Chunki inson huquqlarini himoya qilish – davlat organlarining bosh maqsadidir. Buni biz fuqarolar har jabhada va har lahzada his qilib kelmoqdamiz. Bu ishlar uchun albatta, Yurtboshimizga raxmat! Ularning “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” deb aytgan gaplari yurtimizda o‘z aksini topib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda so‘nggi yillarda juda o‘zgarishlar bo‘lyapti. Bu barcha islohot va o‘zgarishlar xalqimizning turmush tarzini yaxshilash uchundir. Bu uchun Muhtaram Prezidentimiz jon kuydirib biz yoshlarga imkoniyatlar yaratib bermoqda. Albatta biz bundan maksimal darajada foydalanamiz. Chunki Yangi O‘zbekiston biz yoshlar qo‘limizda. Yangi O‘zbekistonda islohotlarning dolzarb bo‘g‘ini bo‘lgan qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida dadil qadamlar tashlanmoqda. Shubhasiz bu o‘zgarishlarni barchasining tubida xalq manfaatlari yo‘lida olib borilayotgan amaliy vazifalar turgani sir emas. Shuning

---

<sup>3</sup> norma.uz – Axborot huquqiy portali

uchun barcha sud – huquq tizimidagi islohotlar inson manfaatlari uchun xizmat qilmoqda deb baralla ayta olamiz!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.strategy.uz sayti – 2021 25-noyabr
- 2.Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiya – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 – yil 10 dekabrda qabul qilingan(30 ta moddadan iborat).
- 3.[www.president.uz](http://www.president.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasidan 2020 yil 29 dekabr
- 4.norma.uz – Axborot huquqiy portali